


XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-MART

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi**
- Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**
- Xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlarning ulushi**



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)
O'sish sur'ati (% da)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-mart** oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 236,8 mlrd. so'mga** yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan (**115,9 %**) o'sish sur'ati **109,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'iadir.

¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq, har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan


Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati¹⁾	4 236,8	100,0	109,9
Olot	142,5	3,4	106,9
Buxoro	221,5	5,2	107,0
Vobkent	310,2	7,3	102,0
G'ijduvon	541,7	12,8	107,8
Kogon	141,9	3,3	115,9
Qorako'l	177,4	4,2	107,2
Qorovulbozor	69,3	1,6	110,0
Peshku	217,6	5,1	123,1
Romitan	226,3	5,4	107,2
Jondor	225,0	5,3	108,2
Shofirkon	182,7	4,3	106,7
Buxoro sh.	1625,7	38,4	111,6
Kogon sh.	155,0	3,7	115,8

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimilanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart)



2023- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 104,5** ming. so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,1 %** ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 104,5	108,1
Olot	1 383,9	105,3
Buxoro	1 264,5	105,3
Vobkent	2 123,2	100,4
G'ijduvon	1 705,1	105,9
Kogon	1 713,7	113,8
Qorako'l	1 044,1	105,7
Qorovulbozor	3 535,1	107,2
Peshku	1 685,6	121,0
Romitan	1 517,0	105,3
Jondor	1 232,6	106,4
Shofirkon	990,2	105,3
Buxoro sh.	5 609,8	109,6
Kogon sh.	2 428,6	113,5

(yanvar-mart)

2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-mart** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **376,8** mlrd. so'mga oshib, **2 551,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida ularning ulushi **60,2 %** ni, shu jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar **17,9 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinalini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.



Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik umumiyligi hajmining **24,6 %** i yoki **628,0** mlrd. so'mni Buxoro shahri egallaydi.

Xizmatlar sohasida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi (2023- yil yanvar-mart)



■ Kichik korxona va mikrofirmalar


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	4 236,8	100,0	109,9
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	178,3	4,2	123,8
Moliyaviy xizmatlar	922,8	21,8	128,1
Transport xizmatlari	870,4	20,6	105,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	793,0	18,7	105,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	165,4	3,9	102,4
Savdo xizmatlari	1 327,8	31,3	105,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	83,2	2,0	102,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	192,6	4,6	103,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,2	1,7	101,7
Ijara xizmatlari	90,9	2,1	97,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	86,5	2,0	100,6
Shaxsiy xizmatlar	97,4	2,3	102,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	31,3	0,7	104,1
Boshqa xizmatlar	119,0	2,8	105,5

Moliyaviy xizmatlar

(yanvar-mart)



2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **275,8** mlrd. soʻmga oshib, **922,8** mlrd. soʻmga yetdi. Ushbu xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **21,8** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning jami oʼsish surʼati **128,1** % ni tashkil etdi .


Hajmi, mlrd. soʻmda Oʼsish surʼati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʼlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʼyicha xizmatlari uchun toʼlanadigan haq hisobiga koʼra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʼurta va nafaqa taʼminoti boʼyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,4** % ni tashkil etdi.



(yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi **870,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, **2022- yil yanvar-mart oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o‘sish sur’ati **105,7 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, tashish va saqlash bilan bog‘liq faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **2 170** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **11,0 %** ini tashkil etdi. Ulardan **2 159** birlik (**99,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **34,6** mlrd. so‘mga oshib, hisobot davrida **195,7** mlrd. so‘mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-mart** oylariga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati **107,1 %** ni tashkil etdi.


G‘ijduvon tumanida ushbu ko‘rsatkich **153,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning o‘sish sur’ati **105,0 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

(yanvar-mart)

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi **218,8 mlrd. so‘mga oshib, **1 327,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi.**

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo‘yicha o‘sish sur’ati **105,9 % ga yetdi.**




Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiyligi sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida ularning savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ulushi (**43,6 %** yoki **8 567** dona) ustunlik qiladi, shundan **99,7 %** (**8 541** dona) kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(yanvar-mart)



2023- yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 178,3 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,8 % ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni **324** birlikka yetdi, shundan **306** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-mart)

Telekommunikatsiya xizmatlari – **92,3 %**

Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar – **3,3 %**

Axborot xizmatlari – **1,0 %**

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **3,4 %**

Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2023- yil yanvar-mart)

	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʼsish surʼati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	178,3	100,0	118,6
Olot	5,0	2,8	115,5
Buxoro	8,4	4,7	114,2
Vobkent	7,3	4,1	127,6
G’ijduvon	15,1	8,5	114,5
Kogon	4,5	2,5	115,4
Qorakoʻl	8,0	4,5	114,8
Qorovulbozor	1,6	0,9	122,0
Peshku	6,3	3,5	120,3
Romitan	7,4	4,2	116,5
Jondor	9,6	5,4	118,1
Shofirkon	8,8	4,9	115,5
Buxoro sh.	92,8	52,0	120,6
Kogon sh.	3,5	2,0	108,1


¹⁾ shahar va tumanlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan Buxoro shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **21,9** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **92,8** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu shaharning ulushi **52,0 %** ni tashkil etdi.

G’ijduvon tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **15,1** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

(yanvar-mart)



2023- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **192,6** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,2 %** ni tashkil etdi.



— Hajmi, mlrd. so'mda ↗ O'sish sur'ati, % da

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-mart** oylarida ularning ulushi **61,7 %** ni tashkil etdi.

"Ta'lim" sekiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(yanvar-mart)



2023- yil yanvar-mart

oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **71,2** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **782** birlikni tashkil etdi, shundan **702** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



(yanvar-mart)

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **29,9** mlrd. so'mga oshib, **165,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **2 091** birlikni tashkil etgan bo'lisa, ulardan **2 084** birlik kichik biznes subyektlaridir.

**Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-mart)**


**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**
**Yashash bo'yicha
xizmatlar**

87,4 %

12,6 %

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(yanvar-mart)



2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **83,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiylajit hajmida ularning ulushi **2,0** % ni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-mart** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.


Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-mart, mlrd. so'mda)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

(yanvar-mart)



2022- yilning yanvar-martiga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 5,4 mlrd. soʻmga oshib, 2023- yil yanvar-mart oylarida 90,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd. soʻmda ↗ Oʼsish surʼati, % da

Ijara xizmatlari boʻyicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiyligi hajmida **2023- yil yanvar-mart** oylarida avtomobillar va yengil avtovositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **55,7 %** ni tashkil etdi.

Taʼkidlash joizki, respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining toʼlov qobiliyati va imkoniyatlari, shuningdek, isteʼmolchilar talabini qondiradigan kichik biznesning rivojlanish darajasiga, ayniqsa, zamonaviy xizmat turlari (AKTdan foydalangan holda)ga bogʼliqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi boʼlimi



Tel.: 65-223-79-41